

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

**UMUMIY O’RTA TA’LIM MAK TABI BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARILARI
O’RTASIDA SHAXMATNI TASHKIL QILISH TALABLARI**

D.M.Eshpo’latova

NavDPI Jismoniy madaniyat fakulteti

Tayanch doktoranti

H.Raxmonova

*Qiziltepa tumani 21-umumiy o’rtta ta’lim
maktabi o’qituvchisi*

Annotatsiya: Osiyo-shaxmat vatanidir. Yurtimizdagи qadimgi odamlar manzilgohi Dalvarzintepada (Surxondaryo viloyati) IV asrga oid shaxmat donalari topilganligi, shaxmatning kelib chiqish davrlari va hozirgi kundagi ahamiyati to’g’risida

Kalit so’zlar: Shatranj, Debyut, Mittelshpil, Endshpil

Buyuk kelajak bugundan, avlodlar esa hozirgi yosh bolalardan boshlanadi. IV-Vasrlar O’rta Osiyoda ikki raqib o’rtasida o’ynaluvchi yangi o’yin “Shatranj” paydo bo’ldi. 64 katakli taxtada shoh, rux, fil, farzin, ot va piyodalar joy oldi. 550 yillar shatranj o’yini haqida ilk ma’lumotlar tarqaldi. VII asrga kelib, shaxmatning arabcha atamasi shatranj mashhur bo’lib ketdi. O’rta Osiyo xalqlari orasidan taniqli ustalar yetishib chiqdi. Ular “Oliyalar” deb ataldi. Malaka jihatidan shatranjchilar ilk bor toifalarga bo’lindi. 847-yil. Al-Adliy tomonidan birinchi shatranj kitobi yozildi. IX asrda shatranj nazariyasiga oid adabiyotlar paydo bo’ldi. Sun’iy masalalar, ya’ni mansubalar tuzildi. Bu hozirgi shaxmat kompozitsiyasining asosi bo’ldi. O’yinni rivojlantirish maqsadida tabbiylar o’ylab topildi. Tabiiy o’yinning boshlang’ich qismidagi vaziyatlarni anglatsa, mansub o’yin oxiriga oid boshqotirmalardan iborat bo’lgan. Sohibqiron Amir Temur shatranjni ulug’lagan, uni rivojlantirishga katta hissa qo’shgan. Saroyda shatranj oliyasi va nazariyotchisi Ali Shatranjiy ayniqsa mashhur bo’lgan. VII-IX asrlarda shatranj Yevropaga kirib keldi. Ispaniya, Italiya, Rossiya, Fransiya kabi davlatlarda keng tarqaldi. Yangi nom “SHaxmat” paydo bo’ldi. Bu atama “shoh” va arab tilidagi “mot” so’zlaridan olingan edi. Bugungi kunda shaxmat o’yini xalqlarning sevimli sport turlaridan biridir. Shaxmat-aql-zakovatning qadimiyligi ijob samarasi hisoblanadi. Qariyb ikki ming yillardiki, insonlar bu o’yin sirlarini topishga intiladilar. Hozir yer yuzida yuz millionlab kishilar shaxmat o’ynaydi, uni fan sifatida o’rganib, mahurat oshiradilar. Lekin yuz yillar avval bo’lgani kabi inson homon shaxmat olamining bepayon dengizida suzib yuribdi, o’yin sir-u sinoatlari esa hanuz cheksiz-chegarasiz... Matematik hisoblashlarga ko’ra shaxmat taxtasidagi 32 dona joylashuv holatlari shunchalik ko’p ekanki, ularning sonini 52 xonali raqamlar bilan ifodalash mumkin edi. Bu esa koinotdagi barcha zarrachalardan ham ko’p. Aslida inson shaxmatning oxirgi chegaralariga yetish uchun emas, balki tafakkur va qobiliyatini o’stirish, uning sirli va g’zal dunyosidan zavqlanish, bahra olish uchun

5 – SON / 2023 - YIL / 15 - YANVAR

o'ynaydi.Shaxmatning yana bir o'ziga xos xususyati bor.U o'zida sport,fan va san'atni mujassamlashtirgan.Shaxmat doskasining 32tasi oq,32 tasi qora ranglarga ajratilgan va ular ketma-ket,ya'ni har bir qatorda oq va qora kataklar navbat bilan joylashtirilgan.Kataklarni xonalar deb atash ham mumkin.

Millatning,xalqning,Vatanning kuch-qudrati oshib borishida sog'lom ma'naviyatining ahamiyatiga katta urg'u berib,yurtboshimiz komil insonni tarbiyalashdagi asosiy vazifalarini ko'rsatib beradi.Ma'lumki,hozirgi davrda ko'pchilik oilalarda,ayniqsa,shahar sharoitida kichik yoshdan boshlab,go'daklarni sportning shaxmat turiga berishadi.Sport bilan shug'ullanish bolalarni ham jismoniy ham aqliy faoliyatini oshirishga samarali ta'sir qiladi.Ta'kidlash lozimki,o'yinni tashkil qilish va qiziqarli qilib o'tkazish uchun joylarni tanlash,ularga bo'lgan talablarni(tozalik,butunlik-so'z,qiziqtiruvchi jihatlar)bilishi lozim.O'yin jarayoni yoki so'ngida (yakunlash)bolalarning barchasida quvnoqlik,yana o'yinga ishtiyоqlik bo'lishi lozim.Buning uchun murabbiy eng avvalo ruhiy jihatdan quvnoq,o'zini tuta bilishi kerak.Eslatish lozimki,shaxmat o'yinida harakatlarni bajargan holda bolalarni kamsitish,koyish yaramaydi.Aksincha rag'batlantiruvchi tarbiyaviy usullardan (yana yaxshi,tez,eslab qolib chiriyli bajar)foydalanish lozim.Faol balalarni rag'batlantirishda o'rnak sifatida ba'zilarini na'muna qilish mumkin.Shaxmat-har tomonidan aqliy,jismoniy rivojlanishning asosiy vositalaridan biridir.Shaxmat sport turi o'sib kelayotgan avlod chaqqonlik,epchillik,kuchlilik va sabr -toqatli bo'lishga o'rgatadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

- 1.B.Xolmirzayev. Shaxmat.O'quv qo'llanma
- 2.D.Yaqubova. Shaxmatning boshlang'ich asoslari.O'quv-uslubiy qo'llanma
- 3.M.Xaylayev Shaxmat alifbosi.Toshkent -2015